

**“MADANIYATLARNING OMMAVIYLASHUV JARAYONI:
MODERNIZATSIYA UCHUN IMKONIYATMI YOKI IDENTITET UCHUN
TAHDID?”**

Pardayev Ahrorqul Hasanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti
dotsenti, tarix fanlari nomzodi,

Abduraimova E'zoza Akbar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti
Tarix fakulteti I-bosqich talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada madaniyatlarning ommaviylashuvi fenomenini globallashuv sharoitida kechayotgan transkultural jarayonlarning murakkab tizimli o'zaro ta'siri nuqtayi nazaridan konseptual tahlil qiladi. Ommaviylashuvning modernizatsiyaviy potentsiali sifatida madaniy innovatsiyalar almashinuvi, kommunikativ makonlarning kengayishi va ijtimoiy dinamikaning akseleratsiyasi ilmiy-metodologik asosda izohlanadi. Shu bilan birga, ish jarayonning imkoniyat va xavf omillarini dialektik integratsiyada ko'rib, madaniy siyosatni optimallashtirish uchun nazariy asoslangan konseptual modelni taklif etadi.

Kalit so'zlar: “Ommaviy madaniyat”, yoshlar onggi, intellektual salohiyat, integratsiya, konsepsiya, globallashuv, qadryat tushunchasi, plyuralizm, mentalitet.

Globallashuv sharoitida madaniyatlarning ommaviylashuvi jarayoni transmilliy axborot oqimlari, kultural konvergensiya va kommunikativ makonlarning kengayishi orqali jamiyat modernizatsiyasini jadallashtiruvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Biroq ushbu jarayonning kultural standartlashuv, semantik assimilyatsiya va identitet barqarorligining zaiflashuvi kabi oqibatlari uni milliy o'zlik uchun potentsial tahdid sifatida ilmiy tahlil etishni talab qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2017-yil madaniyat va san'at sohasi vakillari bilan uchrashuvda shunday ta'kidlangan edilar: "Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasini avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma'noda, madaniyat-bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir" [www.president.uz. internet sayti].

Ommaviy madaniyat, ya'ni madaniyatning ommaviylashuvi hodisasi, G'arb olamida XX asr boshlarida paydo bo'ldi. Ommaviy madaniyat bu barcha janrlar va san'at turlari to'plami bo'lib, ular zamonaviy texnologiyalar, ommaviy axborot vositalari va aloqa orqali yaratilgan va tarqatilgan. Uning yengilligi, moslashuvchanligi, yaratilgan artefaktlarni madaniyatning boshqa qadriyatlariga ko'chirish qobiliyati va iste'molchining didiga moslashish qobiliyati ommaviy madaniyatning muhim fazilatlaridir. U yaratilgan va tarqatilgan qadriyatlarni iste'mol qilish orqali barcha qadriyatlarni o'zgartirishning asosiy kanali bo'lib, bu ommaviy madaniyatning shakllanishi va iste'molining asosi bo'ladi. Ushbu jarayon dunyoga yoyilgani kabi, bizning yurtimizda ushbu jarayonning belgilari yetarlicha. Shu tufayli, uning foydali va zararli jihatlariga to'xtalib o'tish o'rinlidir.

Ommaviy madaniyatning imkoniyatlari-bu hodisaning jamiyat hayotidagi ijobiy ko'rinishlari ya'ni u orqali yuzaga keladigan foydali tomonlardir. Albatta, birinchi navbatda, axborot va madaniy almashinuvning tezlashishi. Chunonchi, dunyoning turli mamlakatlari o'rtasida madaniyat tajriba almashinuvi kuchayadi. Kino, teatr, musiqalar orqali insonlar boshqa xalqlarning urf-odatlarini va hayoti bilan tanishadi. Ikkinchidan, yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi. Ommaviy madaniyat zamonaviy g'oyalarni, texnologiyalarni, yangi hayot tarzlarini targ'ib etadi. Bu yoshlarning jodkorlik, yangilikka intilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Uchinchidan, iqtisodiy imkoniyatlarni yaratadi. Jumladan, kino, moda, musiqa, reklama, bloggerlik kabi yo'nalishlar orqali yangi ish o'rinlari, biznes loyihalar paydo bo'ladi [1, 242-246-b.]. Bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga turtki beradi.

Madaniyatshunos nemis olimi Adorno shunday deydi: “yuqori” va “past” madaniyatlar uchun yuzlab yillar davomida bu zarar yetkazishi mumkin, deyiladi umumiy maxrajga, bitta madaniyatga olib keladi. Ommaviy madaniyatga boʻlgan munosabatni qatʼiy ravishda hukm qilish va hatto ayblash mumkin emas [www.wikipedia.org. internet sayti].

Ommaviy madaniyatning tahdidlari-bu uning jamiyat, milliy qadriyatlar va inson ongiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan tomonlaridir. D. Uaytning taʼkidlashicha, ommaviy madaniyatning hozirgi voqelikda dolzarbligi va foydali ekanligiga qoʻshilish qiyin. U birinchi navbatda, uning qadriyati juda past ekanligini, ikkinchidan, ommaviy madaniyat insonning ruhiyatiga salbiy taʼsir koʻrsatmasligiga shubha qilish notoʻgʻri ekanligini taʼkidlaydi, hatto agar inson bu madaniyatni oʻzi tanlagan boʻlsa ham [www.blacksacademy.net. internet sayti]. Tadqiqotchi Uayt ommaviy madaniyatning mashhurligiga ishonadi, chunki u “koʻngilochar, oʻrgatuvchi va oʻz vaqtida yorituvchi” xususiyatlarga ega. Ammo u insoniy illatlar yoki ijtimoiy anomaliyalar uchun aybdor deb hisoblash notoʻgʻri deb biladi.

Avvalambor, milliy qadriyatlar va anʼanalarni yoʻqotish xavfi mavjud. Ommaviy madaniyat asosan gʻarbiy turmush tarz va qadriyatlarni targʻib etadi. Natijada, milliy urf-odatlar, ona til, kiyinish madaniyati, oʻziga xos sanʼat yoʻnalishlari chetda qoladi yoki butunlay unutiladi. Ikkinchidan, axloqiy nozikliklar va maʼnaviyat tanazzulga yuz tutadi. Koʻplab ommaviy mahsulotlarda (klip, serial, shou dasturlarda) nooʻrin kadrlar, boylikni ideallashtirish kabi holatlar koʻp uchraydi [2, 128-131-b.]. Bu esa yoshlarning tarbiyasiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev masalaning shu jihatiga alohida toʻxtalib, “Biz bir narsani hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz zarur. Agar “ommaviy madaniyat” tahdidi faqat chetdan – Gʻarbdan kirib keladi, desak, qattiq adashamiz. Bu balo, afsuski, oʻzimizdan, oʻz oramizdan ham chiqishi mumkin. Men bu gaplarni osmondan olib aytayotganim yoʻq. Yurtimizda nashr etilayotgan ayrim gazeta-jurnallar, kitoblarni, suratga olinayotgan baʼzi klip va kinolarni, efirga berilayotgan

qo'shiq va raqslarni kuzatib, sog'lom fikrlaydigan har qanday odam shunday xulosaga kelishi tabiiy[www.president.uz. internet sayti].

Shuningdek, Obiddin Mahmudovning qarashlariga ko'ra, "Ommaviy madaniyat" deb atalmish g'ayriinsoniy tushuncha, tamoyil, dunyoqarashlar kun, soat, daqiqa sayin zurriyotlarimiz ong-u shuurini egallamoqda. Bunday sharoitda farzand tarbiyasining dolzarbligi ortsa, ortadiki, kamaygan emas. Zotan, turli axborot xurujlari, qadriyatlarimizga yot, nomaqbul ta'limotlardan yoshlarimiz tafakkurini muhofaza etish, shu bilan birga, ularda mavjud ma'naviy bo'shliqni sharqona tarbiyaning yo'nalishlari bilan zamonaviy uslubda boyitish lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda[3, 8-9 b.].

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori negizida ilgari surilgan "Milliy tiklanishdan-milliy yuksalish sari" g'oyasi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarda olib borilayotgan yangilanishlar, ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishda olib borilayotgan faoliyatning, yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiluvchi ta'lim va tarbiya usullarini asosi bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, ommaviy madaniyatni faqat tahdid sifatida baholash biryoqlama yondashuv bo'lib, bu hodisaning mohiyatini to'liq aks ettirmaydi. Aslida, ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyatda madaniy yangilanish, kommunikatsiya tizimining rivojlanishi, ijodiy o'sish va axborot almashinuvi uchun muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. U insonlar o'rtasida o'zaro tushunishni kuchaytirish, turli millat va madaniyat vakillarini yaqinlashtirish hamda madaniy tajriba almashinuvini jadallashtirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ommaviy madaniyatning ijobiy imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun uni ongli ravishda boshqarish, milliy qadriyatlar va an'analarni asrab-avaylash hamda ularni global madaniy jarayonlarga uyg'un tarzda integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar jamiyat ushbu jarayonni to'g'ri yo'naltira olsa, ommaviy madaniyat milliy taraqqiyot, ma'naviy yuksalish va madaniy integratsiyaning qudratli vositasiga aylanishi mumkin. Demak, ommaviy madaniyatni

zamonaviy sivilizatsiyaning ajralmas qismi sifatida baholab, unga ijobiy va tanqidiy yondashuvni uyg'unlashtirish zarur. Faqat shunda u tahdid manbai emas, balki jamiyatning intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlanishiga xizmat qiluvchi konstruktiv imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baykabilova P., Narzullayev H., Mamatmo'minov O. Ommaviy madaniyatning hayotimizdagi o'rni va milliy dunyoqarashga ta'siri // **Ta'limning Zamonaviy Transformatsiyasi jurnali. Toshkent. 2024.**
2. Ergasheva G. Globallashuv jarayonlarida "ommaviy madaniyat" tahdidlarining oldini olish yo'llari. // **Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi jurnali. Toshkent. 2023.**
3. Mahmudov O. Farzandnoma Toshkent. 2020.
4. www.president.uz. internet sayti
5. www.wikipedia.org. internet sayti
6. www.blacksacademy.net. internet sayti